

Date: 27th February-2025**FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARINING TA'MINLASH
MEXANIZMLARI****Abdulatifov Javohir Boburjon o'g'li**

NamDU Yuridik fakultet talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozish orqali biz bugungi kunda davlatimizda fuqarolar huquq va erkinliklarining ta'minlanishi qay darajada olib borilayotganligi va yana fuqarolarning huquqlarini himoya qiladigan organlar va tuzilmalar haqida ma'lum qilamiz va o'zim bo'lajak yurist sifatida davlatimizda sodir bo'layotgan holatlar yuzasidan shaxsiy fikr mulohaazalarimni keltirib, o'z munosabatimni bildirdim . Prezidentimiz tashabbuslari bilan yangi O'zbekistonimizda huquq, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar va ularning ijrosi O'zbekistonning huquqiy davlat ekanligiga alohida urg'u qaratilayotganidan darak bermoqda. Biz yoshlar ham ushbu islohotlar, o'zgarishlarga hamohang tarzda yurtimiz kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shib, vatanimizga munosib avlod bo'lishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Ombudsman, Milliy markaz, INSON, HMQO organlari, Prezident, huquq, erkinlik.

Аннотация: Написав эту статью, мы информируем об уровне защиты гражданских прав и свобод в нашей стране сегодня, а также об органах и структурах, защищающих права граждан, и я как будущий юрист лично осведомлен о сложившейся ситуации. что происходит в нашей стране, я высказал свое мнение и выразил свое отношение. Реформы, направленные на обеспечение законности и правопорядка в нашем новом Узбекистане с инициативами нашего Президента и их реализация, свидетельствуют о том, что особый упор делается на то, что Узбекистан является правовым государством. Мы, молодежь, будем способствовать будущему нашей страны в гармонии с этими реформами и изменениями и постараемся стать поколением, достойным нашей страны.

Ключевые слова: Омбудсмен, Национальный центр, Inson, Правоохранительные органы, Президент, права, свобода.

Annotation: By writing this article, we inform about the level of protection of civil rights and freedoms in our country today, as well as about the bodies and structures that protect the rights of citizens, and as a future lawyer, I am personally aware of the situations that are happening in our country. I gave my opinion and expressed my attitude. The reforms aimed at ensuring the rule of law and the rule of law in our new Uzbekistan with the initiatives of our President and their implementation indicate that special emphasis is being placed on the fact that Uzbekistan is a legal state. We, the youth, will contribute to the future of our country in harmony with these reforms and changes, and try to become a generation worthy of our country.

Key words: Ombudsman, National Center, HUMAN, HMQO bodies, President, law, freedom.

Date: 27th February-2025

Huquq so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, u davlat tomonidan o'rnatiladigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Uning turlari mavjud: fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, jinoyat huquqi va boshqalar. Huquqning har biri turi muayyan bir sohalarni va munosabatlarni tartibga soladi.

Ko'p kishilar **huquq** va **erkinlikni** bir-biridan ajrata olishmaydi. Ularning fikricha, **huquq** va **erkinlik** so'zlari bir ma'noni anglatadi. **Erkinlik – bu** kishining o'z istagi bo'yicha ish tutishi.

Erkinlik tushunchasi huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika, estetika kabi ijtimoiy bilim sohalarida keng ishlataladi. Masalan, vijdon erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazo. Erkinlik — boshboshdoqlikni emas, jamiyatdagi muayyan tartibni ifodalaydi. Erkinlik insonning jamiyat oldidagi vazifani bajarishni erkin, ixtiyoriy tanlashidir. Erkinlik insonning siyosiy, ma'naviy ta'qibdan, zo'ravonlikdan himoyalanganligini bildiradi. Erkinlik o'z baxtini o'zi yaratish vositasi bo'lib, insonning o'zligini anglash darajasini ifodalaydi.

Ko'p yillar davomida o'zbek xalqi o'z huquq va erkinliklari paymol bo'lishiga nisbatan davlat organlariga yoki boshqa mansabdor shaxslarga murojaat qilib o'z huquq va erkinliklarini buzilishini oldini ola olmadi. Ya'ni O'zbekiston hududida ko'p yillar hukmronlik qilgan Sobiq Sovet Ittifoqi o'zbek xalqining huquq va erkinliklarini sezilarli darajada cheklab qo'ygan edi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbuslari bilan 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqillikka erishdi va shu bilan birga o'zbek xalqi ham o'z huquq va erkinliklariga ega bo'ldi. Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, 1992-yil 8-dekabr kuni o'zbek xalqining huquq va erkinliklari, burch va majburiyatlarini o'zida mujassam etgan qonun ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bosh qomusimizni qabul qilinishi xalqimizda juda katta ishonch uyg'otdi. Konstitutsiyamizning 7-bobi "shaxsiy huquq va erkinliklar" deb nomlangan. Bu bobda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning shaxsiy huquq va erkinliklari keltirib o'tilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini yuqori darajaga olib chiqishdir. Konstitutsiyamiz asosida qabul qilingan ko'plab qonunlarning asosiy vazifasi ham shundan iboratdir.

2023-yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendumda O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi konstitutsiyasi qabul qilindi. Bosh qomusimiz bo'lgan yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 20 – moddasida, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, shuningdek insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra, yuqoridagi normani amalda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmuni sifatida belgilash maqsadida davlat organlari faoliyatida inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishiga rioya etilayotganini reyting asosida baholash mexanizmini

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th February-2025



joriy etish zaruriyati vujudga keldi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari faoliyatida inson huquq va erkinlarini ta'minlanishiga rioya etilayotganini aniqlash tartibini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risida ID-89720 – sonli qaror qabul qilindi.

Shuningdek, har yili 1- martga qadar "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi va boshqa vakolatli organlari, jamoatchilik birlashmalari bilan hamkorlikda tizim orqali aholi va soha mutaxassislari o'rtasida inson va huquq erkinlarini ta'minlanishiga rioya etilayotganligiga oid ijtimoiy so'rovlar olib borilyapti.

O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi davlat organlari va tuzilamalari mavjud. Ular turkumiga Ombudsman, Milliy markaz, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, HMQO organlari va Prezident kiradi.

Ombudsman - Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili. Ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda 1995-yilda tashkil etilgan. Ombudsman - turli xil ma'muriy organlar, ba'zi mamlakatlarda esa — shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylab (tayinlab) qo'yiladigan mansabdor shaxs. Ombudsman nazoratni amalga oshiradi va prokuraturadan farqli ravishda nafaqat qonuniylik, balki shu bilan birga samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, adolatparvarlik nuqtai nazaridan ham tekshirish olib boradi. Uning maqsadi - Inson huquqlarini himoya qilinishini nazorat qilish¹.

Milliy markaz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (1996-yil 31 oktyabr) bilan tuzilgan markaz. Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab quvvatlash dasturiga muvofiq tashkil etilgan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi - bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinnlarda Agentlik deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Ahola sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan tashkil etilgan.

Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi².

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – bu organlarning asosiy maqsadi va vazifasi O'zbekiston hududida qonunlarni bajarilishini ta'minlash va ularni buzilishi oldini olishdan iborat. Ko'plab inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlnishiga oid qonunlar, prezident farmonlari va boshqa normativ hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlar

¹<https://lex.uz/acts/-276159>

²<https://lex.uz/docs/-6480342>

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27thFebruary-2025



ijrosini va muhofazasini ham ushbu davlat organlari amalga oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, HMQO organlari ham inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Prezident - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir(Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 109-moddasi). Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritib kelayotgan inson va fuqarolarni huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi davlat organlari va tashkilotlarining doimiy faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonimizda yildan-yilga inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati yuksalib bormoqda. Har yili Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlanishini ko'zda tutgan yangi farmon va qarorlar imzolanadi. Men o'zim bo'lajak yurist sifatida, bu jarayonlardan kelib chiqqan holda xulosa qildim – jamiyatimizda qonun ustuvorligi ta'minlanarkan, xalqimiz bundan faqat manfaatdor bo'ladi ya'ni ularning huquq va erkinliklari poymol bo'lmaydi. Jamiyatimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun avvalo ularga o'z huquq va erkinliklarini tushuntirish lozim. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlarda turli xil huquqiy kanallar va bloglar tashkil qilinishi kerak, chunki kundan - kunga rivojlanib borayotgan zamonda odamlar ma'lumotlarni asosan ijtimoiy tarmoqdan olishyapti. Bu huquqiy kanal va bloglar o'zlarining faoliyatlarini noodatiy uslubda amalga oshirishlari darkor, chunki hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan paytda raqobat jadal rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida "Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi" deb ta'kidlab o'tdilar. Bu davlatimiz siyosatining sezilarli qismi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlanishiga qaratilganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 . O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2023 йил. Тошкент
- 2 . Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi
- 3.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
- 4.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND

**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY
AND PSYCHOLOGY.
International online conference.**

Date: 27th February-2025

EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7,
ISSUE 10 (30- OCTOBER)

5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112

6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135

7. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ҲУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar

8 . <https://lex.uz/acts/-276159>

9 . <https://lex.uz/docs/-6480342>